



## FARG'ONA VODIYSI VILOYATLARIDA AGRAR SIYOSATNING AMALGA OSHIRILISHI(1960 – 1980-YILLAR)

Jaxongirov Islomxon

FarDU Tarix mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20725419>

### ARTICLE INFO

Received: 1st June 2026

Accepted: 5<sup>th</sup> June 2026

Published: 17<sup>th</sup> June 2026

#### KEYWORDS

*Farg'ona vodiysi viloyatlari, kolxoz, sovxoz, irrigatsiya, Markaziy Farg'ona, buyruqbozlik.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada XX asrning 60 – 80-yillarida O'zbekistonda sovet davlatining agrar siyosatini Farg'ona vodiysi viloyatlari misolida o'rganish, uning amalga oshirish mexanizmlari, iqtisodiy natijalari hamda ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik oqibatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.*

### Kirish

XX asrning 60–80-yillari Sovet Ittifoqi qishloq xo'jaligi siyosatida muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu davrda mamlakat iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish, ayniqsa paxta yetishtirish hajmini oshirish asosiy strategik vazifalardan biri sifatida belgilandi. O'zbekiston, xususan Farg'ona vodiysi viloyatlari ushbu siyosatning muhim obyektlaridan biri bo'ldi. Markaz tomonidan qabul qilingan qarorlar asosida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish, irrigatsiya tizimlarini kengaytirish va paxta ekin maydonlarini ko'paytirish ishlari amalga oshirildi.

SSSR Davlat reja qo'mitasi tomonidan har bir ittifoq respublikasining ishlab chiqarish yo'nalishlari belgilab berildi. O'zbekiston uchun paxta xomashyosi yetishtirish asosiy vazifa sifatida belgilandi. Natijada respublika iqtisodiyoti bir tomonlama rivojlanib, paxtachilikning ulushi keskin oshdi.

1960 – 1980-yillarda O'zbekistonda sug'oriladigan yer maydonlarini kengaytirish davlat agrar siyosatining muhim yo'nalishiga aylandi. Mirzacho'li, Qarshi cho'li, Jizzax va Surxondaryo, Markaziy Farg'ona hududlarida yangi yerlar o'zlashtirildi.

Paxtachilikning ustuvor yo'nalishga aylanishi natijasida 1960-yildagi qariyb 3 million tonnalik paxta hosili 1980-yilga kelib 6 million tonnadan ortdi. O'zbekiston SSSR paxta xomashyosining asosiy qismini yetkazib beruvchi hududga aylandi. Farg'ona viloyati paxta yetishtirish bo'yicha respublikadagi yetakchi hududlardan biri bo'lib qoldi. Andijon va Namangan viloyatlarida ham paxta maydonlari sezilarli darajada kengaytirildi. Natijada mintaqa iqtisodiyotida paxtachilikning ulushi keskin ortdi. Biroq bu jarayon qishloq xo'jaligining bir yoqlama rivojlanishiga sabab bo'ldi [3].

1960-yillardan boshlab Farg'ona vodiysidagi bo'z va qo'riq yerlarni o'zlashtirish boshlangan. O'tgan davr ichida sahro va qumtepa joylarida zamonaviy aholi yashaydigan qishloqlar, yangi xo'jaliklar paydo bo'ldi. Bo'z va Ulug'nor tumanlari tashkil etildi.

1959-yil 9-noyabrida yuqoridagi qarorga muvofiq Andijon viloyat qishloq xo'jaligi boshqarmasi "1959 – 1965 yillarda Markaziy Farg'onada qo'riq va bo'z yerlarni sug'orish va o'zlashtirish to'g'risida" buyruq chiqarib[4], Markaziy Farg'onada 1959 – 1965 yillar

mobaynida yangi o'zlashtiriladigan 24,8 ga yerlarni tayyorlash yuzasidan bajariladigan topshiriqlarni tumanlar bo'yicha tasdiqladi. 1960-yil 18-martda O'zSSR Suv xo'jaligi vazirligi "1960-yilda Markaziy Farg'ona yerlarini sug'orish va o'zlashtirish bo'yicha qurilish ishi dasturi to'g'risida" buyruq e'lon qildi.

1961 – 1965 yillarda Markaziy Farg'ona yerlarini qishloq xo'jaligi jihatidan o'zlashtirish va irrigatsiya-melioratsiya holatida tayyorlash rejasini quyidagi jadvaldan ham ko'rish mumkin: **(ming gektarda).**

№	Viloyat nomi	Irrigatsiya melioratsiya jihatdan tayyorlandi	Qishloq xo'jaligi jihatdan o'zlashtirildi	Xo'jalik jihatdan o'zlashtirilgan kolxozlar	Xo'jalik jihatdan o'zlashtirilgan sovxozlar
1	Farg'ona	67,8	54,5	28,7	25,8
2	Andijon	54,4	46,5	31,5	15,0
<b>Jami</b>		<b>122,2</b>	<b>101</b>	<b>60,2</b>	<b>40,8</b>

Markazning buyrug'iga asosan Markaziy Farg'ona yerlarini o'zlashtirish ishlarida koreys millatiga mansub aholi ham ishtirok etdi. Jumladan, "Bo'z tumanida 249 nafardan iborat koreys millatiga mansub 76 oila yashagan bo'lib, ularning barchasi sobiq Ittifoq davrida, ya'ni XX asrning 40 – 50-yillarida Uzoq Sharqdan O'rta Osiyoga deportatsiya qilingan koreyslar avlodlaridir. O'sha davr faqatgina tumanda 2 nafar koreys kolxozlari mavjud bo'lib, ular Markaziy Farg'ona qo'riq va bo'z yerlarini o'zlashtirishda faol ishtirok etgan".

Sovetlarning paxta yakkahokimligi siyosati negizida Markaziy Farg'ona yerlarini o'zlashtirish kuchayib bordi. Jumladan, 1973-yil 15-noyabrda O'zSSR Ministrlar Soveti Prezidiumining "O'zbekiston KP MK va O'zSSR Ministrlar Sovetining Markaziy Farg'ona hududida yerlarni qishloq xo'jalik jihatidan o'zlashtirish, sug'orish, yangi xo'jaliklarni tashkil qilish va kompleks qurilish masalalari bo'yicha qarori bajarilishining borishi to'g'risida"gi majlisi bo'lib o'tdi. Mazkur majlis bayonnomasida O'zbekiston KP MK va O'zSSR Ministrlar Sovetining 1971-yil 1-noyabrdagi "Markaziy Farg'ona yerlarini sug'orish va qishloq xo'jalik jihatidan o'zlashtirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qaroriga asosan ishlab-chiqarish obyektlari, turar-joy va madaniy-maishiy ahamiyatga molik obyektlar qurilishi ishlari bajarilganligi va 1972 – 1973-yillarga rejalashtirilgan dalalarni himoya qilish uchun o'rmon ixotasini barpo qilish topshirig'ining bajarilishi tahlil qilingan.

1961-yilda Andijon viloyat Baliqchi tumanidagi "Mingbuloq" sovxozida yalpi paxta terish 3559,5 tonnani tashkil etdi. Ushbu tumanga qarashli "G'alaba" kolxozida hosildorlikni pasayishi gektaridan 8,3 sentnerni va Orjenikidze kolxozida esa har bir gektardan 6 sentnerni tashkil qildi.

"Mingbuloq" sovxoz 1963-yilda davlatga, 5 ming tonna birinchi nav qo'riq o'lkaning paxtasini topshirdi, bu bilan u paxta tayyorlash rejasini 113,06 foiz bajardi. Sovxozda 1963-yili 1962-yildagidan 1000 tonna ortiq paxta mashinada terildi. Texnikadan foydalanish natijasida "Mingbuloq" sovxoz 1960 – 1963 yillarda qo'shimcha ravishda 2250 gektar qumloq va sho'r yerlarni o'zlashtirdi hamda Markaziy Farg'onada juda katta maydonni o'zlashtirgan xo'jalikka aylandi. Sovxoz 3405 gektar yerda faqat g'o'za yetishtirdi[5].

1975-yil 26-martda Namangan viloyati ijroiya qo'mitasi kengashi "Viloyat kolxoz va sovxozlarida foydalanilayotgan yerlarni kelgusida yaxshilash chora-tadbirlari va holati to'g'risida" qaror qabul qildi. Ushbu qarorda to'qqizinchi besh yillikning o'tgan 4 yilida

Namangan viloyatining kolxoz va sovxozlarida sug'oriladigan yerlardan foydalanishni yaxshilash bo'yicha ma'lum ishlar bajarilganligi ta'kidlandi. Viloyatda 15,1 ming ga yer o'zlashtirildi va 29,9 ming ga kapital rejalashtirildi, 73,0 ming ga maydonni suv bilan ta'minlash ishlari yaxshilandi. Markaziy Farg'onaning Oxunboboyev tumanidagi "Solijonobod" sovxozi 1978 yilda tashkil etildi, unga 720 gektar ekin maydoni birkiritib berildi. Cho'lquvarlar o'shanda 600 gektar yerda paxta yetishtirishdi. Ilk davrdan boshlab sovxoz cho'lquvarlari "Ferganavodstroy" tresti bilan hamkorlikda yangi yerlarni o'zlashtirib, qishloq xo'jaligi oborotiga kiritishga bel bog'lab, astoydil ish boshladi. Cho'l bag'ridan yil sayin ko'proq yangi yerlar tortib olindi. 1978-yilda 276 gektar, 1979 yilda 468 gektar, 1980 yilda 184 gektar va 1981 yilda 214 gektar yangi yer o'zlashtirilib, sovxoz cho'lquvarlari tasarrufiga kiritildi. Yosh xo'jalikning umumiy ekin maydoni 1862 gektarga yetdi. Shundan 900 gektar yerda paxta yetishtirildi[6].

Lekin, ko'plab xo'jaliklarda iqtisodiy manfaatdorlikning pastligi, reja ko'rsatkichlarining sun'iy oshirilishi va ma'muriy-buyruqbozlik usullarining ustunligi kuzatildi. Bu holatlar qishloq xo'jaligi samaradorligining pasayishiga olib keldi [1].

Agrar siyosat natijasida Farg'ona vodiysida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish hajmi oshdi. Paxta yetishtirish bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga erishildi. Qishloqlarda elektrlashtirish, yo'l qurilishi va ijtimoiy infratuzilma rivojlandi.

Biroq siyosatning salbiy oqibatlari ham mavjud edi. Paxta yakkahokimligi qishloq xo'jaligining diversifikatsiyasini chekladi. Yer va suv resurslarining haddan tashqari ekspluatatsiyasi ekologik muammolarni kuchaytirdi. Qishloq aholisi mehnatining natijalari ko'proq markaz manfaatlariga xizmat qildi.

1980-yillarga kelib paxta yetishtirish bo'yicha rejalarning sun'iy ravishda oshirilishi va statistik ma'lumotlarning soxtalashtirilishi bilan bog'liq muammolar yuzaga chiqdi. Bu holatlar keyinchalik "paxta ishi" nomi bilan tarixga kirgan jarayonlarning yuzaga kelishiga zamin yaratdi [2].

1960-1980-yillarda Farg'ona vodiysi viloyatlarida amalga oshirilgan agrar siyosat Sovet davlatining markazlashgan iqtisodiy manfaatlariga xizmat qildi. Mintaqa paxtachilikka ixtisoslashtirilib, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi asosan paxta yetishtirishga yo'naltirildi. Sug'orish tizimlarining kengaytirilishi va texnik ta'minotning yaxshilanishi natijasida ishlab chiqarish hajmi oshgan bo'lsa-da, qishloq xo'jaligining bir yoqlama rivojlanishi, ekologik muammolar va oziq-ovqat ta'minotidagi nomutanosibliklar yuzaga keldi. Mazkur siyosatning oqibatlari keyingi davrlarda O'zbekiston agrar tizimida chuqur islohotlar o'tkazish zaruratini vujudga keltirdi.

#### Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

1. Абдуллаев Р., Ражабов Қ. Ўзбекистоннинг энг янги тарихи. – Тошкент: Universitet, 2018. – В. 67.
2. Karimov Sh. Sovet davrida O'zbekistonda paxtachilik siyosati va uning oqibatlari // O'zbekiston tarixi. – Toshkent, 2020. – №3. – В. 45–58.
3. Lubin N. *Labour and Nationality in Soviet Central Asia*. – Princeton: Princeton University Press, 1984.
4. Гофуров А. Ирригация ва мелиорацияни ривожлантиришнинг иқтисодий проблемалари... -Б.33.
5. Наринский К.М. Яшнаган қўриқ. (Ўзбекистон меҳнаткашларининг Марказий Фарғонадаги қўриқ ва бўз ерларни ўзлаштириш тажрибалари). -Тошкент: Ўзбекистон, 1965.-Б.37.
6. Тўхтасинов И. Бунёдкорлар.-Тошкент: Ўзбекистон, 1989.-Б.38.